

UO'T:635.64

CHERRI POMIDOR NAV NAMUNALARINI ISSIQXONADA
YETISHTIRISHDA HOSILDORLIKNI OSHIRISH

Egamberdiyev Sobir Yo'ldoshevich

Toshkent davlat agrar universiteti (PhD)

Axmedov Shuxrat Qurvondurdiyevich

Qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha falsafa doktor (PhD)

KIRISH

Bugungi kunda cherri pomidor yetishtirish hajmini ko'paytirishga talab ortib bormoqda. Shu bois qishloq xo'jaligi rivojlangan Yevropa mamlakatlari, AQSH, Isroil, Yaponiya, Rossiyada cherri tipidagi mevasi kichik (10-20 g), tashqi ko'rinishi chiroyli, qizil, sariq, qora, pushti rangli, mazasi shirin yangi navlarni yaratish va yetishtirishni innovatsion texnologiyalarini qo'llash bo'yicha ko'plab tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Shunday bo'lsada bugungi kunda issiqxonalarda cherri pomidorni serhosil, kasalliklarga chidamli nav va duragaylarini o'rganish, ajratish hamda yetishtirishning innovatsion texnologik elementlarini ishlab chiqish, takomillashtirish hamda tan narhini kamaytirish muxim hisoblanadi.

Tadqiqot natijalari Tadqiqot natijalariga ko'ra, cherri pomidor nav namunalarini hosildorlik ko'rsatkichlari aniqlandi. Pomidorni har bir terimda har bir qaytariqlar bo'yicha hosil torozida tortilib, tovarbop va notovar hosilga ajratildi va hisoblash ishlari olib borildi. Bunda umumiy hosil, tovarbop hosil va tovarbop hosilning ulushi, shu bilan birga umumiy hosildan notovar ya'ni mevalarni deformatsiyalangan, qiyshiq, qo'shaloq, kuchli qovurg'alangan, chirigan va zararlanganlari ajratildi.

Tajribada pomidorni bir kvadrat metrdagi o'simlikdan olingan hosildorlik ko'rsatkichlari ham hisoblab chiqildi.

Pomidor o'simligi uchun umum qabul qilingan «Shirokomu unifitsirovannomu klassifikatoru SEV i mejdunarodnomu klassifikatoru SEV vida Lycopersicon esculentum Mill» (1980) klassifikatorida hosildorlikni standartga nisbatan guruxlanishi (juda kam - 70% dan past, kam - 71-90%, o'rtacha yoki bir xil - 91-105%, yuqori - 106-130% va juda yuqori - 130% dan ko'p) bo'yicha o'rganilgan namunalarni taxlili qilsak, umumiy va tovarbop hosil miqdori bo'yicha juda kam guruxga 2 ta, o'rtacha yoki bir xil guruxiga standart bilan 3 ta, yuqori guruxiga 2 ta va juda yuqori guruxiga 4 ta nav namunalari mos kelganligini ko'rishimiz mumkin.

Tajribada tovarbop hosil namunalar aro bir biridan farqlandi. Bunda eng yuqori tovarbop hosil Blek cherri, Krasniy slivovidniy, 1000 N2 pomidorki va Medoviy kaskad namunalarida bir metr kvadratdan 12,7-14,7 kg hosil olindi va tovarbop hosil ulushi esa 93,0-94,2 foizni tashkil etdi. Standart navning tovarbop hosili 9,5 kg ni tashkil etib, unga yaqin, bir xilda hosil to'plagan namunalar Dikovinka, va Balkonnnoye chuda 9,5-9,7 kg ni tashkil etgan.

Tajribada eng kam hosil to'plagan namunalari Guliver va Quality seed navlari (5,5-6,2 kg/m²) bo'ldi va tovarbop hosil ulushi 85,4-86,1 foizni tashkil etdi. Tajribada albatta cherri pomidor o'simligining turli xil nav namunalarining biologik xususiyatlari, gullashi, changlanishi va hosil to'plash xususiyatlari bir biridan farqlanishi kuzatildi.



Xulosa: Olib borilgan tadqiqot natijalariga ko'ra har yili pomidorni hosili tovar va notavar hosilga ajratildi, chunki issiqxonalarda pomidor mahsulotini tovarboplik xususiyati asosiy ko'rsatkichlardan biri bo'lib, mahsulot sifatiga baho beriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Авдеев Й.И. Селекция томатов. – Кишинев: Штиинса, 1982. – 284 с.
2. Алпатьев А.В. Помидори. М., “Московский рабочий”, - 1981. – 302 с.
3. Арамов М.Х. Эколого-генетические основы селекции томата на устойчивость к патогенном и адаптивную способность. Автореф. дисс....доктора с-х. наук. СПб., 1994.-48 с.
4. Асатова С.С. Влияние регулятора роста тетрадила на рост, развитие и урожайность томата и огурца.// Автореф.канд.дисс. Ташкент.ТашГАУ. 1995. С.6-7.
5. Брежнев Д.Д. Томати. – Л.: Государственное издательство сельскохозяйственной литературы, 1955. – 351 с.
6. Bo'riev X.Ch, Sabzavot ekinlari seleksiyasi va urug'chiligi. – Toshkent. Mehnat, 1999. – B. 16-25.
7. Жуковский П.М. Культурные растения и их сородичи. -3-е изд. Л., «Колос». 1971. - С. 265-272.



8. R.X.Xakimov, S.Y.Sharipov Pekin karamini sifatli saqlanishiga qadoqlash materiallarining ta'siri "O'zbekiston agrar fani xabarnomasi" jurnali – Toshkent, 2024. №3(15/2) – B.59-61 (06.00.00.№7).

9. R.X.Xakimov, M.B.Xakimova Impact of packaging materials on the preservation of Beijing cabbage Galaxy international interdisciplinary research journal (GIIRJ), ISSN(E):2347-6915. Vol.12, Issue 6 June (2024). B. 22-25 SJIF Impact Factor 2024:8,346

10.R.X.Xakimov, S.Y.Sharipov, M.B.Xakimova Pekin karamini zamonaviy sovitgichli omborlarda saqlash texnologiyasi Progress Annals: Journal of Progressive Research, ISSN(E):2810-6466 Vol.2, Issue 6, June 2024. B. 1-6